

ISLOMIY BANK VA MOLIYALASHDA NIZOLARNI HAL ETISH

Aziza Donayeva Inomjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik

fakulteti 2-bosqich talabasi

G-mail: donayevaaziza@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bank faoliyati va uning tarixi haqida soʻz borgan boʻlib, asosan islom bankining ish faoliyatiga asoslangan. Islom bankining faoliyat yuritish tartibi, ananaviy banklardan farqli jihati, Oʻzbekistonda islom bankining faoliyat yuritish tartibi, risk menejmenti shuningdek, islom qonun-qoidalariga asoslangan bank sohalari hozirgi kunda zarurligi va bunday banklarni Oʻzbekistonda ochilishi bosqichi haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: *Bank, islomiy bank, bank tizimi, islomiy qonun-qoidalar, shariat, murobaha, foiz (ribo), ananaviy bank, sugʻurta, risk menejmenti, moliya vazirligi, foyda, zarar, islom bankini moliyalash, islom moliyasi tizimi.*

ABSTRACT

This article talks about the banking activity and its history, and is mainly based on the activity of the Islamic bank. The procedure of operation of an Islamic bank, its difference from traditional banks, the procedure of operation of an Islamic bank in Uzbekistan, risk management, as well as the necessity of banking sectors based on Islamic laws and the stage of opening such banks in Uzbekistan are discussed.

Keywords: *Banking, Islamic banking, banking system, Islamic laws and regulations, Sharia, murabahah, interest (riba), traditional banking, insurance, risk*

management, finance ministry, profit, loss, Islamic banking financing, Islamic financial system.

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается о банковской деятельности и ее истории, и в основном она основана на деятельности исламского банка. Порядок работы исламского банка, его отличие от традиционных банков, порядок работы исламского банка в Узбекистане, управление рисками, а также необходимость банковских секторов, основанных на исламских законах и этап открытия таких банков в Узбекистане Обсуждаются.

Ключевые слова: *Банковское дело, исламский банкинг, банковская система, исламские законы и правила, шариат, мурабаха, проценты (риба), традиционное банковское дело, страхование, управление рисками, министерство финансов, прибыль, убыток, исламское банковское финансирование, исламская финансовая система.*

1. Kirish va dolzarbligi. Bank faoliyatining tarixi. Islomiy banki.

Avvalo, bank soʻziga taʼrif berib oʻtadigan boʻlsak, Bank- italyancha soʻzdan olingan boʻlib, asosiy yoʻnalishlaridan biri deposit yaʼni omonatni qabul qilish va mijozlarga kredit berishdan iborat. Bank ishining dastlabki belgilari, quldorlik davriga borib taqaladi. Bu faoliyat asosan, savdogarlarning pul bilan bogʻliq oldi-sotdi jarayonida namoyon boʻlgan. Ayniqsa, 19 asrda bank faoliyati juda takomillashib ketadi, bu jarayon bank ishlab chiqarishning konsentratsiyalashishida buning oqibatida esa, banklarning yiriklashivuga, bank monopolyalarining vujudga kelishiga va ular oʻrtasida raqobat kuchayib ketishiga sabab boʻldi.

Oʻzbekistonda mustaqil bank tizimini yaratish maqsadida 1991-yil 15-fevralda “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida” qonun qabul qilindi, bundan soʻng asta-sekinlik bilan mustaqil bank tizimi shakllana boshladi. Oʻzbekiston Respublikasida bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni xoʻjalk yuritishning

bozor sharoitlariga bosqichma-bosqich o'tkazish dasturiga mos keladi. Shu sababdan ham qisqa davr mobaynida bank faoliyatida katta yuksalish bo'lganligini, mijozlarga har tomonlama qulay bo'lgan kredit ajratib berganligini ko'rishimiz mumkin. Bevosita, O'zbekistonda yangi bank sohasi bo'lgan va oz fursat davomida katta muvafaqqiyatlarga erishgan islom bankiga e'tiborimizni qaratsak.

Islom banki - mijozlarga xizmat ko'rsatish islomiy qoida va qonunlarga asoslanib olib boriladigan faoliyat hisoblanadi. Bunday bankning eng muhim jihati shundan iboratki, sarmoya uchun yoki qarz uchun foiz hisobida xizmat haqqi undirilmaydi, buning sababi, bunday faoliyat islom dinida taqiqlangan. Banklar o'z faoliyatini mijozlarga mo'ljallangan binolarni moliyalashtirishdan tushgan foydalar hisobiga yuritadi. Islom bankining asosiy faoliyat turiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu bank shariat tamoyillariga asoslangan bo'lib, asosan islomiy iqtisodiyotni rivojlantirish orqali amaliy qo'llanma bo'lgan bank faoliyati hisoblanadi¹. Albatta, bu turdagi bank faoliyatini yuritish uchun ham bir qancha shartlar mavjud hisoblanadi. Bular quyidagilardan iborat;

- Shariat qayd qilgan yoki to'langanligidan qat'iy nazar kredit berish uchun belgilangan foizlar yoki qo'shimchalarni olish taqiqlanadi;

- Islom prinsiplariga zid bo'lgan tovarlar yoki xizmatlar, masalan, alkogol bilan ta'minlaydigan korxonalariga sarmoya kiritish taqiqlanadi;

Ushbu taqiqlar tarixan XX asr oxirlarida ma'lum bir darajada qo'llanilganiga qaramay, ushbu tamoyillarni musulmon jamiyatidagi xususiy yoki yarim xususiy tijorat muassasalarida qo'llash uchun bor yog'i bir necha banklar tashkil etilgan xalos. Biroq, davr rivojlangan sari, shuningdek, insonlar bank orqali foizli to'lov asosida kredit olish nechog'lik xato ish ekanligini anglagani ham islomiy bank faoliyatini yanada rivojlanishi uchun katta yo'l ochib berdi. Buning isboti sifatida, 2009-yilga kelib dunyoda islomiy tamoyillarga muvofiq tashkil etilgan 300 dan ortiq banklar va 250 ta qo'shma fondlar faoliyat ko'rsatgan. 2014-yilda esa 2 trillion dollarlik umumiy aktivlar shariat tamoyillariga moslashtirilgan. 2014-yil ma'lumotlariga ko'ra, shariat

¹ <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/8623-islom-banklari-faoliyati>

tamoyillariga asoslangan moliya institutlari jami jahon aktivlarining 1 foizini tashkil etgan¹.

O‘zbekistonda Islomiy moliyalashtirish Islom bankining xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha loyihalari ko‘rinishida taqdim etilgan bo‘lib, u uzoq vaqt davomida “Ipak yo‘li” banki bilan ham muvaffaqiyatli hamkorlik qilib kelmoqda. Moliyalashtirish **Murobaha** prinsiplariga muvofiq kafolatlarni ta‘minlash uchun banklarga moliyalashtirish liniyalarini taqdim etish shaklida amalga oshiriladi. Bu musulmon mamlakatlaridagi banklar tomonidan ishlatiladigan foizsiz operatsiyalarni amalga oshirish uchun eng keng tarqalgan ish usullaridan biri hisoblanadi. Murobaha - mijozlarni moliyalashtirish bo‘yicha faol operatsiya bo‘lib, u keng doiradagi xaridlar uchun mos keladi, uskunalardan tortib biznes binolarigacha².

Islom taraqqiyot banki 1975-yilda IHT mamlakatlari moliya vazirlari yig‘ilishining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan. Islom taraqqiyot bankning shtab-kvartirasi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. Islom taraqqiyot bankning hududiy ofislari 1994-yili Rabot(Marokash)da, shu yili Kuala-Lumpur(Malayziya)da, 1997-yili Olma-Ota(Qozog‘iston)da va 2008-yili Dakar(Senegal)da ochildi. Bank shuningdek 12 ta a‘zo mamlakatda mahalliy vakolatxonalariga ega: bular Afg‘oniston, Ozarbayjon, Bangladesh, Gvineya, Indoneziya, Eron, Nigeriya, Pokiston, Serra-Leona, Sudan, O‘zbekiston va Yamandir. Islom taraqqiyot bankning maqsadi, a‘zo mamlakatlarning, shariatga asoslangan musulmon jamoalarining, iqtisodiy rivojlantirish va ijtimoiy taraqqiyotiga ta‘sir o‘tkazish. Tashkilotga 56 ta mamlakat a‘zo bo‘lib, Saudiya Arabiston, Liviya, Eron, Nigeriya, Qatar, Misr, Turkiya, Birlashgan Arab Amirligi, Quvayt kabi davlatlar bankni asosiy moliyalashtiradigan mamlakatlar hisoblanadi³.

2. Islom banklarining ananaviy banklardan farqli jihati.

Avvalo, jahon tajribasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, barchamizga ma‘lumki, 2008-yil butun dunyo bo‘ylab inqirozli davr bo‘ldi, ko‘plab davlatlar ushbu vaziyatda

¹ <https://islom.uz/view/islomii-banklar>

² Wan Ibrahim, Wan Hakimah, and Abdul Ghafar Ismail. "Conventional bank and Islamic banking as institutions: similarities and differences." *Humanomics* 31.3 (2015): 272-298.

³ <https://fayllar.org/xalqaro-bank-ishi-sessiya-javoblari-aqshda-bank-faoliyatini-ta.html?page=11>

ziyon ko'rdi. Shu qatori, bir nechta banklar ham o'z faolitali davomida kuchli zararga duch keldi, biroq islom banki bu inqirozni hech qanday zararsiz qarshi oldi, faoliyatida esa hech qanday pastga tushishlar bo'lmadi. Buning sababi, islomiy bank hech qanday ribosiz ya'ni sug'urta faoliyatisiz o'z faoliyatini olib boradi. Bu uning eng katta yutug'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga qo'shimcha holda, islomiy bank boshqa banklardan farqli o'laroq, tegishli miqdordagi summani to'lamagani uchun penya ya'ni jarimani ham olmaydi. Bu kabi hislatlar islom bankining nechog'lik halol faoliyatga asoslanganligiga dalil bo'ladi. Demak, islom bankining boshqa banklardan ajralib turadigan eng katta jihati o'z faoliyatini ribosiz tashkillashtirgani ekan. Bunday holda bir savol vujudga kelishi tabiiy hol. Islom banki ribosiz faoliyat yuritadigan bo'lsa, kasodga uchrashi mumkin emasmi? Albatta, yo'q. Sababi, islom bankida ham risk menejmentini yuritish sohasida mutaxasislari mavjud bo'lib, ushbu soha insonlar tomonidan olib kelingan loyihalarni yoki ular o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun so'ragan mablag'larni hisob-kitoblarni qilib, loyiha talablarga javob beradigan bo'lsagina mablag'ni moliyalashtirishni tashkil etadi. Mablag'ni berish jarayonida ham bank pulni to'g'ridan-to'g'ri ochiqchasiga berib yubormaydi, bunday holda munosabatga ribo aralashishi mumkin. Shu sababli ham, bank mijoz bilan sherikchilik qiladi. Ya'ni, mijoz foydaga kirsam ham bank sherik bo'ladi, balki zararga kirsam ham bank sherik bo'ladi. Buning foydali jihati shundaki, zararga kirganda ikki tomon, moliyalashtirilgan shaxs ham bank ham zararni teng to'laydi.

Shuningdek, islom banki faoliyati to'g'risida bir qancha noto'g'ri tushunchalar ham mavjud. Xalq orasida islom banki "xayriya tashkiloti" sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, har qanday pulga muhtoj inson boradi va osonlikcha pulni olib ketadi. Yoki bo'lmasam, ushbu bankni ish yurituv shakli ananaviy banklardan qolishmaydi, faqatgina foizsiz qarz beradi deb hisoblashadi. Bu nazaryalarning barchasi haqiqatdan yiroq bo'lib, islom banki ham o'z faoliyati davomida foyda olishni ko'zlaydi, faqat bu foyda foiz ya'ni ribo ko'rinishida emas, balki, sherikchilik asosida vujudga keladi. Aniqroq qilib aytib o'tadigan bo'lsak, islom banklari odatdagi banklardan butkul farq qiladi. Ular o'z faoliyati davomida riboni (foiz) taqiqlaydii va o'z mijozlari bilan foyda

va zararni taqsimlash bo'yicha kelishuvlarga asoslangan tamoyillarga holda faoliyatini olib boradi. Bundan tashqari, islom banklari shariatga mos keladigan sanoat va aktivlarga sarmoya kiritadi, bu esa bank faoliyatining yanada axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli ekanligini bildiradi. Shuningdek, islom banki ma'lum bir tashkilot emas. Biroq, butun dunyo bo'ylab bank va moliya sohasida shariat qonunlari tamoyillariga amal qiladigan bir nechta islomiy banklar mavjud, masalan Saudiya Arabistonidagi Al-Rajhi Bank, Dubai Islamic Bank, Bank Islam Malaysia Berhad va boshqalar¹.

3. Islom moliyasi O'zbekistonda.

O'zbekistonda islom banki va uning erkin faoliyati uchun katta qadamlar qo'yilmoqda, buning sababi sifatida, davlat islom bankining yanada rivojlanishi uchun tashabbus kiritmoqda. Bunga qo'shimcha holda, O'zbekiston hududidagi boshqa banklar ham o'z boshqaruv tarkibiga islom bakini darcha sifatida kirgizmoqda, bunga misol qilib, "Trans bank"ni olishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiku, islom bankining dastlabki ko'rinishlari O'zbekiston hududida ijobiy baholandi. Asosan, 2008-yildan keyin ya'ni butun dunyo bo'ylab moliyaviy inqiroz yuz berganda, islom banki yurtimiz bo'ylab kengaya boshladi. Ayni damda, faoliyat yuritayotgan islom banklari pulni tovar manbai emas, balki almashinuv vositasi deb baholaydi. Qarzni berib keyin ma'lum vaqt o'tgandan keyin qo'shimcha foizlar asosida qaytarib oladigan emas, balki, investitsiyani ma'lum sohaga kiritadi, sherikchilik asosida, foydaga kirsam ham zararga kirsam ham teng ikkiga bo'linadi, hech qanday foiz va sug'urtasiz. O'zbekistonda islomiy moliyalashtirilish islom bankining xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha loyihalar ko'rinishida taqdim etiladi, shuningdek islom banki uzoq vaqt davomida "Ipak yo'li" banki bilan ham muvaffaqiyatli hamkorlik qilib kelmoqda. Moliyalashtirish "Murobaha" prinsiplariga muvofiq kafolatlarni ta'minlash uchun banklarga moliyalashtirish liniyalarini taqdim etish shaklida amalga oshiriladi. Bu musulmon mamlakatlaridagi banklar tomonidan ishlatiladigan foizsiz operatsiyalarni amalga oshirish uchun eng keng tarqalgan ish usullaridan biridir.

¹ Ahmed Z., Iqbal M., Khan M. F. (ed.). Money and banking in Islam. – Produced for the International Centre for Research in Islamic Economics, King Abdul Aziz University, Jeddah by Institute of Policy Studies, 1983.

So‘nggi yillarda Islom moliya tizimi tushunchasi ko‘plab mamlakatlar moliyachilarining so‘z boyligidan mustahkam o‘rin oldi. Darhaqiqat, turli mamlakatlarda, hattoki aksariyat aholisi islom diniga mansub bo‘lmagan davlatlarda ham, jumladan AQSh va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy institut an’anaviy bank xizmatlariga muqobil moliyalash tizimi sifatida barqaror rivojlanmoqda. Shuning uchun islom bankchiligini o‘rganish global iqtisodiyotda dolzarb mavzu hisoblanadi. An’anaviy bank tizimiga muqobil moliyalash shakllari mavjudligini bilish qiziqarli va foydalidir. Avvalo biz islomiy bankning mohiyatini va asosiy maqsad-vazifalarini bilib olishimiz muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Islom banking asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- aksionerlik kapitaliga vositalarni sarmoyalashtirish;
- ishlab chiqarish korxonalarini va loyihalariga qarzlarni berish;
- a‘zo-davlatlarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi maqsadida boshqa shakllarda moliyaviy yordam berish;
- aniq maqsadlar uchun tuziladigan maxsus fondlarni boshqarish. Nomusulmon davlatlardagi musulmon jamoalariga yordam fondi shular jumlasidan;
 - moliyaviylashtirish uslublari vositasida moliyaviy resurslar yo‘naltirish va depozitlarini qabul qilish;
 - a‘zo-davlatlarga texnik yordam ko‘rsatish;
 - musulmon davlatlarning rivojlanishi bo‘yicha tashkilot a‘zolarini o‘qitishda xizmatlar ko‘rsatish;
 - bepul kreditlar berish².

4. Islom banking risk menejmenti.

Islom banklarida risklarni samarali boshqarishga alohida e‘tibor qaratish talab etiladi. Shunga qaramay, u to‘g‘ri tushunilish uchun zarur bo‘lgan bir qator

¹ Akhmadjonov, O., Nishonqulov, S., Rajabboyev, B., Nazirov, A., & Meliboyev, A. (2021). ISLOM BANKI VA O‘ZBEKISTON. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 766-775.

² Akhmadjonov, Oybek, et al. "ISLOM BANKI VA O‘ZBEKISTON." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.9 (2021): 766-775.

kamchiliklarga ega. Risklarni boshqarish zamonaviy bank ishi bilan bog‘liq holda to‘lov mentaliteti va ular bilan bog‘liq strategiyalar va tahdidlar bilan bog‘liq. Risklarni boshqarish - bu bank amaliyotlari, jarayonlari va tahdidlarini tasniflash va aniqlash, ularni nazorat qilish, kuzatish va o‘lchash uchun banklarda operatsion muammodir. Islom banklari foydadan zararni taqsimlash kontseptsiyasidan kelib chiqadigan katta muammolar va islomiy moliyalashtirishda noyob xatarlarning mavjudligi sababli an’anaviy banklarga nisbatan risklarni aniqlash va boshqarishda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xatarlarni boshqarishning to‘g‘ri usullari noaniqlik davrida moliyaviy institutlar duch keladigan salbiy oqibatlarni kamaytiradi. Sifat standartlarini ta’minlash uchun mustahkam ichki nazorat, shuningdek, umumiy risklarni boshqarish amaliyotida nazorat va muvozanatni ta’minlash uchun xavfning miqdoriy tahlilini to‘ldirish uchun zarurdir. Samarali risklarni boshqarish tizimi nazorat harakatlarida markaziy o‘rinni egallaydi. Islom institutlarida risklarni boshqarish tizimi kredit riskidan tashqari boshqa risklarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan moliyaviy shartnomalar va vositalarni o‘z ichiga olgan islomiy moliyalashtirish operatsiyalari bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarni hal qila olishi kerak¹. Islom banklari risklarni boshqarishda shariat tamoyillaridan kelib chiqib faoliyat yuritadi. Masalan, kredit riskida korxonalar bilan kreditorning birga qatnashishi sharti bilan qo‘yilgan kapitaldan o‘zaro foyda olishga ruxsat beradi. Foyda va zararlarni taqsimlash asosiga qurilgan bank tizimining iqtisodiy rivojlanishida taklif etilayotgan xatarli kapitallarning ko‘payishi hisobiga kuchli qoqilish yuz berishi mumkin. Bank tomonidan loyihaning bajarilishi ustidan doimiy va qattiq nazorat o‘rnatiladi. Agar loyihani amalga oshiruvchi tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato yoki e’tiborsizlik oqibatida zarar ko‘riladigan bo‘lsa so‘zsiz, ushbu zararni qoplash ish yurituvchi zimmasiga yuklatiladi. Ana shunday vaziyatlarni nazarda tutgan holda islom banklari talabgordan ma’lum qiymatga ega bo‘lgan mulkni garov sifatida qo‘yishni talab qilishi mumkin². Islomiy moliyaviy tamoyillar shariat

¹ Islam K. M. A., Barghouthi O. A. Risk Management of Islamic Banking: An Islamic Perspective //International Journal of Islamic Banking and Finance Research. – 2017. – T. 1. – №. 1. – C. 25-28.

² <https://fayllar.org/xalqaro-bank-ishi-sessiya-javoblari-aqshda-bank-faoliyatini-ta.html?page=11>

qonunlari asosida rivojlandi, u riboni to'lash yoki olishni - foizlarni to'lash yoki olishni taqiqlaydi.

Bir qancha maqolalarda islom bankchiligiga xos bo'lgan o'ziga xos risklar ko'rsatilgan. Masalan, Erriko va Farahbaxsh islom banklarini tartibga soluvchi nazorat va qoidalar operativ tavakkalchilik va ma'lumotlarning oshkor etilishiga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydilar. Ular PLS bilan bog'liq maxsus xavflarni tushuntiradilar. Masalan, ayrim hollarda islom banklari mijozlardan garov talab qilib kredit riskini yumshata olmaydi, chunki ularning munosabatlari sheriklik asosida o'rnatiladi; bundan tashqari, mudoraba shaklida moliyalashtiriladigan loyihalarni boshqarish ustidan yetarlicha nazoratga ega emaslar. Xon va Ahmad islom banklarining foyda yoki zararini ularning investitsion hisob egalari bilan bo'lishish pul mablag'larini olib qo'yish xavfini keltirib chiqarishini da'vo qiladi. Ular, shuningdek, turli islomiy moliya usullari shariat tomonidan qo'llaniladigan turli xil cheklovlar tufayli o'ziga xos risk xususiyatlariga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Sundararajan va Erriko tavakkalchilikni yanada samarali boshqarish uchun PLS moliya usullarining murakkabligi va PLS bo'lmagan faoliyat bilan bog'liq risklarni hisobga olish kerakligini taklif qiladi. Ular, shuningdek, islom banklari va investitsion hisob egalari o'rtasidagi maxsus munosabatlar natijasida yuzaga keladigan turli xil ma'naviy xavf masalalariga ishora qiladilar. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, (depozit) olib qo'yish xavfi islom banklarini an'anaviy shariat moliyalashtirish tamoyillaridan chetga chiqishga ko'ndirishi mumkin. Bu, agar banklar bankning haqiqiy faoliyatidan qat'i nazar, investitsiya hisobvaraqlari egalari raqobatbardosh bozor daromadlarini to'lasalar sodir bo'ladi¹.

5. Xulosa va takliflar.

Taraqqiyotning yuqori bosqichiga chiqayotgan davrda bank va moliya sohalari hayotimizda juda muhim bo'lgan rolni o'ynamoqda. Bank muntazam hayot tarzimizning bir bo'lagiga aylangan. Tadbirkor biznes qilmoqchimi yoki fuqaro uy

¹ Akhmadjonov O. et al. ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVF //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 8. – C. 639-642.

qurmoqchimi, qimatbaho narsa xarid qilmoqchimi ya'ni har bir hayot tarzimizning ipidan-iginasigacha bank bilan bog'liq holda ish qilamiz. Biroq, soha rivojlangan sari, undagi kamchiliklar ham asta-sekinlik bilan ko'zga tashlanadi. Xususan, islom banki misolida oladigan bo'lsak, bank O'zbekiston hududida alaqachon o'z faoliyatini boshlagan biroq uni tartibga soluvchi qonunchilikda muammolar vujudga kelmoqda. Ya'ni, kerakli qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni qabul qilish bilan bir qatorda, O'zbekistonda islom bankchiligining rivojlanishida yana bir nechta muammolar mavjuddir. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, Islom bankchiligini O'zbekistonda joriy qilinishining asosiy mezonlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, banklar va banklar faoliyati to'g'risidagi qonunlarga, soliq va fuqarolik kodekslariga va boshqa qonun osti hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki alohida qonun qabul qilish orqali amalga oshirilishi kerak¹ deb baholaymiz. Bundan tashqari, har bir sohani amalga oshirish uchun albatta shu sohaning mukammal bilimga ega bo'lgan kadrga ehtiyoj sezamiz. Islom moliya sohasida ham shu ko'nikmaga ega bo'lgan kadrlarni bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi, sababi bu bank boshqa banklardan ish faoliyati hamda ishni olib boorish uslubi bilan farq qiladi. O'zbekistonda bu sohada kadrlarni tayyorlash O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida 2018-yilda boshlangan edi, lekin 2019-yilda bu yo'nalish bo'yicha qabul amalga oshirilmadi². Bu o'z-o'zidan mazkur sohada kadrlar yetishmasligini keltirib chiqaradi, ayniqsa Shariat kengashlariga munosib nomzodlar juda kam yoki umuman yo'q, desak ham bo'ladi. Shuningdek, bu borada qars ikki qo'ldan chiqadi. Nafaqat salohiyatli kadrlarni tayyorlash balki, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuqori bo'lgan fuqarolarni ro'li ham katta, ya'ni aholining savodxonligini oshirish ham muhim sanaladi, chunki islomiy moliyalashtirish bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmagan aholi, uni an'anaviy moliyalashtirishdan farqini tushunib yetmasligi yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.

¹ Akhmadjonov, O., Nishonqulov, S., Rajabboyev, B., Nazirov, A., & Meliboyev, A. (2021). ISLOM BANKI VA O'ZBEKISTON. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 766-775.

² [file:///C:/Users/asus/Downloads/islom-banki-va-ozbekiston%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/asus/Downloads/islom-banki-va-ozbekiston%20(1).pdf)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/8623-islom-banklari-faoliyati>
2. <https://islom.uz/view/islomii-banklar>
3. Wan Ibrahim, Wan Hakimah, and Abdul Ghafar Ismail. "Conventional bank and Islamic banking as institutions: similarities and differences." *Humanomics* 31.3 (2015): 272-298.
4. <https://fayllar.org/xalqaro-bank-ishi-sessiya-javoblari-aqshda-bank-faoliyatini-ta.html?page=11>
5. Ahmed Z., Iqbal M., Khan M. F. (ed.). *Money and banking in Islam*. – Produced for the International Centre for Research in Islamic Economics, King Abdul Aziz University, Jeddah by Institute of Policy Studies, 1983.
6. Islam K. M. A., Barghouthi O. A. *Risk Management of Islamic Banking: An Islamic Perspective* // *International Journal of Islamic Banking and Finance Research*. – 2017. – T. 1. – №. 1. – C. 25-28.
7. <https://fayllar.org/xalqaro-bank-ishi-sessiya-javoblari-aqshda-bank-faoliyatini-ta.html?page=11>
8. Akhmadjonov O. et al. *ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVF* // *Scientific progress*. – 2021. – T. 2. – №. 8. – C. 639-642.
9. Akhmadjonov, O., Nishonqulov, S., Rajabboyev, B., Nazirov, A., & Meliboyev, A. (2021). *ISLOM BANKI VA O‘ZBEKISTON. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 766-775.
10. [file:///C:/Users/asus/Downloads/islom-banki-va-ozbekiston%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/asus/Downloads/islom-banki-va-ozbekiston%20(1).pdf).
11. Akhmadjonov, O., Nishonqulov, S., Rajabboyev, B., Nazirov, A., & Meliboyev, A. (2021). *ISLOM BANKI VA O‘ZBEKISTON. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9),
12. 766-775. Akhmadjonov, Oybek, et al. "ISLOM BANKI VA O‘ZBEKISTON." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.9 (2021): 766-775.